

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish  
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

## SPORTCHILARNING DA’VOGARLIK DARAJASI BILAN FAOLIYATI MOTIVLARINI SPORTDAGI NATIJALARGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Jurayev Vohidjon Muhammedovich**  
**Qo‘qon DPI Jismoniy madaniyat metodikasi**  
**kafedrasi dotsenti, (PhD).**  
**Ismoilov Islomjon Qahramonjon o‘g‘li**  
**QDPI talabasi**

Sportchilarning da’vogarlik darajasi bilan sport motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganishga e’tibor qaratdik. Bu so‘zsiz sport motivatsiyasining mazmunini tahlil qilish yuzasidan ilmiy faktlarni taqozo etadi. Sport motivatsiyasi tushunchasi nima? Tushunchaning qisqacha mazmuni quyidagicha: sport faoliyati motivlari-sog‘lom bo‘lish istagi; sport faoliyati orqali o‘zini amaliy hayotga tayyorlash istagi; burch hissi; sport faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash orqali sport bilan shug‘ullanish zaruratidan iborat. Bu inson psixologiyasining qonuniyatlari va xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy manbalarda aks etgan. Bir qator tadqiqotlar mavjudki, ular sportchilarning motivatsiyasini, sportdagi zo‘riqishlarni reabilitatsiya qilishga o‘rgatish sportchilarni musobaqaga tayyorlashning motivatsiyali jabhasi xususiyatlariga bag‘ishlanganidir. Sport bilan shug‘ullanuvchilar orasida eng faoli bu professional sportchilar hisoblanadi. Tadqiqotimizda ushbu toifa sportchilarining yutuqlarga da’vogarligi bilan faoliyat motivlari o‘rtasidagi aloqadorlikni izlanishning bir bosqichi sifatida yoritishga murojaat qilindi. Buning uchun dastlab sportchilarning sport faoliyati motivatsiyasi xususiyatlari tadqiq etildi. Sportchilarning Ye.A.Kalininning “Sport faoliyati motivlari so‘rovnomasi” va V.M.Gerbachevskiyning “Da’vogarlik darajasini baholash” so‘rovnomasidan foydalanildi. Empirik ko‘rsatkichlarning dastlabki tahlili sportchilar faoliyat motivlariga bag‘ishlangan (1-jadval).

Tadqiqotning birlamchi ko‘rsatkichlarini normal taqsimot qoidasiga bog‘liqligiga ko‘ra parametrik yoki noparametrik xarakterga egaligi sinovdan o‘tkazilganda qiymatlarning noparametrik xususiyatga egaligi aniqlangan edi. Shu bois so‘rovnama natijalarini o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalarning statistik xossasini ifodalovchi Mann-Uitni (U) mezonidan foydalanildi. Shu sababli navbatdagi psixologik tahlili esa empirik ko‘rsatkichlarni noparametrik baholash mezonlariga tayanib amalga oshiriladi.

So‘rovnaning baholash shkalalariga ko‘ra sport faoliyati motivlarining xususiyatlari beshta yo‘nalishda talqin etiladi. Baholash shkalalari “erishishga ehtiyoj”, “kurashishga ehtiyoj”, “o‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj”, “muloqotga ehtiyoji” va “rag‘batlantirishga ehtiyoj” dan iboratdir.

Empirik natijalarining psixologik talqinini amalga oshirishda quyidagi tartibda ish tutishni lozim topdik. Dastlab, sportchilarning faoliyat motivlarining statistik

## Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

tafovutga ega emasligi, so‘ngra statistik mezonlarga ko‘ra tafovutlanuvchi qiyamatlarga ko‘ra tahlil qilinadi.

Birinchi shkala “erishishga ehtiyoj”dan iborat bo‘lib, bu motiv sportchining muvaffaqiyatga erishishi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik zarurati bilan bog‘liq faoliyatni rag‘batlantirish turlaridan biridir.

1-jadval

### **Sportchilar faoliyat motivlarining ta’lim muassasasi xususiyatlari ko‘ra ifodalanishi (Mann-Uitni mezoni asosida)**

	O‘rtacha rang		U	p
	Sp ort maktabi, N=	OT M, N=1 30		
Erishishga ehtiyoj	21 9,35	235, 33	1 9132	0,2 34
Kurashishga ehtiyoj	19 2,23	237, 03	1 6475	0,0 01**
O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj	22 9,89	209, 65	1 8739	0,1 32
Muloqotga ehtiyoj	18 8,44	238, 58	1 5982	0,0 00**
Rag‘batlantirilishga ehtiyoj	21 6,40	240, 94	1 8196	0,0 68

Izoh: \*-p≤0,05; \*\*-p≤0,01

Tadqiqotning empirik ko‘rsatkichlari sport muassasalarining xususiyatiga ko‘ra statistik tafovutni aks ettirmadi (sport maktabi o‘quvchilari (219,35) va OTM jismoniy madaniyat fakulteti talabalari (235,33); U= 19132; p=0,234). Ushbu empirik qiyimatlar har qanday muassasada sport sirlarini o‘rganayotgan sportchilarda natijalar va muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lar ekan. Erishishga ehtiyoj bo‘lishi sportchilarning yutuqqa bo‘lgan intilishlarida keskin tafovutni aks ettirmadi. Bu kichik yoki katta sport bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar yutuqqa va yuqori natijalarga erishish ishtiyоqi mavjud degan xulosani bermoqda. Uning amalga oshirilishi va natijaviyligi esa sportchi faoliyatining boshqa omillariga ham bog‘liqdir.

“Sportchilarning o‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj” shkalasi bo‘yicha ham natijalarda farq kuzatilmadi. Aslida o‘zini o‘zi kamol toptirish-bu o‘zingizni shaxs sifatida shakllantirish, qobiliyatini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarni egallashning eng muhim usulidir. Bu yerda ham sport muassasalarining xususiyatiga ko‘ra statistik tafovut aks etmadni (sport maktabi o‘quvchilari (229,89) va OTM jismoniy madaniyat fakulteti talabalari (209,65); U= 18739; p=0,132). Har qanday sportchida shug‘ullanayotgan faoliyati uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘zini ham

## Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

jismoniy, ham aqliy jihatdan takomillashtirishga ehtiyoji bo‘lar ekan. Erishishga ehtiyoj singari sportchilarning o‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoji ham doimiy bo‘lib, ular faoliyatining asosiy mazmuni tuzilmasi tarkibiga kirar ekan. Oldingi talqin singari sportchilar faoliyat motivining mavjudlik xususiyati uning natijaviyligi nuqtai nazaridan, ya’ni amalga oshirilish imkoniyati bilan tafovutlanishi mumkin.

Navbatdagi baholash shkalasi “rag‘batlantirishga ehtiyoj”dir. Ushbu faoliyat motivi natijalarida ham sportchilarning ta’lim muassasasiga ko‘ra tafovuti kuzatilmadi (sport maktabi o‘quvchilari (216,40) va OTM jismoniy madaniyat fakulteti talabalari (240,94);  $U= 18196$ ;  $p=0,068$ ). Bu esa sportchilarning har birida o‘z natijalarini rag‘batlantirib turishiga zaruratlari bor ekan. Bu esa shaxs (sportchi) faoliyat natijasiga erishganda uning davom ettirishga bo‘lgan ehtiyojining ortishiga doir psixologik qonuniyatga assoslanadi (A.Maslou).

Empirik ko‘rsatkichlarning navbatdagi talqini esa sportchilarning ta’lim muassasaning xususiyatiga ko‘ra sport faoliyati motivlari o‘rtasidagi tafovutlar haqida so‘z boradi. Ushbu holat bo‘yicha ikkita shkalaning natijalari tahlil qilinadi. Sportchilarning kurashishga ehtiyoj bilan bog‘liq faoliyat motivida tafovut kuzatildi Sport maktabi o‘quvchilari ((192,23) va OTM jismoniy madaniyat fakulteti talabalari (237,03);  $U= 19132$ ;  $p=0,001$ )). Bu yerda OTM talabalarining kurashishga ehtiyoji sport maktabi o‘quvchilarining ko‘rsaktichlaridan statistik jihatdan tafovutlanganligi aniqlandi. OTM talabalarini sport faoliyati jarayonida o‘quvchilar bosib o‘tayotgan tayyorgarlik bosqichini sinovdan o‘tkazgan va ularning oldiga qo‘yan maqsadlari yanada yuqoriqoqligidan dalolat beradi.

Shuningdek, sportchilarning faoliyat motivlarining ikkinchi farqli jihatini aks ettirgan holat muloqotga bo‘lgan motivatsiyasidir (sport maktab o‘quvchilari (188,44) va OTM jismoniy madaniyat fakulteti talabalari (238,58);  $U=15982$ ;  $p=0,000$ ). Ushbu o‘rinda OTM talabalarining sport bilan shug‘ullanish barobarida o‘zining yuqori natijalarga erishishlari uchun tayanch izlashadi. Ular o‘zlariga yangi usullar va yutuqlarga yetaklovchi ustozlar hamda sportdagi do‘stlarga ehtiyoj sezishadi. Bu esa OTM sportchilarining muloqotga ehtiyoj motivatsiyasini belgilaydi. Demak sportchining faoliyati va tajribasining o‘sib borishi rivojlanishga xizmat qiluvchi muloqot subyektlariga zarurat tug‘dirar ekan.

Tadqiqot davomida sportchilarning sport motivlari bilan da‘vogarlik darajasini shartlovchi jihatlari o‘rtasidagi korrelyatsiyasini aniqlashga erishildi. Natijalar talqinida sportchilarning da‘vogarligini tavsiflovchi 15 ta komponent bo‘lib, faqatgina ahamiyatlilik ko‘rsatkichiga ega korrelyatsiyalarni jadvalda keltirib o‘tishni lozim topdik.

Sportchilarning da‘vogarlik darajasini baholovchi bilish motivlari, quvvatni safarbar eta olinganlik darjasini, natjalarning kutilganlik darjasini, natjalarning qonuniyat shkalalarida sport faoliyati motivlari bilan o‘zaro aloqadorlik aniqlandi.

Sportchilarning bilish motivlari bilan kurashishga ehtiyoj o‘rtasida ( $r=0,102$ ,  $p\leq 0,05$ ) kuchsiz ijobjiy korrelyatsiya kuzatildi. Demak, sportchilarning bilishga bo‘lgan motivi uning istiqboli uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishiga yo‘naltiruvchi vazifasini o‘tar ekan. Shu sababli bilish motivlari

## Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

sportchilarning kurashishga ehtiyoji bilan bog‘lana olishi bejizga emas. Sport ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan sport pedagoglari va sport trenerlari ushbu psixologik qonuniyatni doimo esda tutishlari kerak.

Sportchilarning da’vogarlik darajasi bilan erishish ehtiyoji ( $r=0,227$ ,  $p\leq 0,01$ ) va kurashishga ehtiyoji ( $r=0,101$ ,  $p\leq 0,05$ ) bilan korrelyatsiya hosil qildi. Bu esa sportchining yuqori natijalarga erishishiga da’vogarligi uchun jismoniy va ruhiy quvvatini safarbar eta olishi, o‘z o‘rnida foydalana olish zarurligini ifodalamoqda.

Sportchida natijalarni kutilganlik darajasi motivi bilan kurashishga ehtiyoj ( $((r=0,116$ ,  $p\leq 0,05))$  va rag‘batlanishtirishga ehtiyoji ( $r=0,222$ ,  $p\leq 0,01$ ) o‘rtasidagi bog‘liqliklik uni yuqori sport ko‘rsatkichlarini tavsiflashga xizmat qiladi. Sportchining natijalarga erishishi faqat u kutayotgan natijaning yuqoriligi bilan bir qatorda rag‘batlantiruvchi stimullarga ham zarurat tug‘diradi.

Sportchilarning navbatdagi natijalaridagi korrelyatsiyalar esa yuqori natijalarga erishishga ehtiyoj ( $r=0,287$ ,  $p\leq 0,01$ ) va kurashishga ehtiyoj ( $r=0,104$ ,  $p\leq 0,05$ ) ning qonuniyatiga tayanish orqali ta’minlanishini tavsiflamoqda. Sport natijalariga erishish sohaga aloqador qonuniyatlarini va sportchi psixologiyasining xususiyatlarini yetarlicha bilishi hisobiga ta’minlanar ekan.

Sportchining da’vogarlik darajasi bilan faoliyati motivlarini sportdag‘i natijalarga ta’sirining psixologik xususiyatlarini empirik o‘rganish natijalari bizga da’vo darajasining xususiyati yuzasidan yangi izlanishlarga imkoniyat tug‘dirdi. Buni sportchining faoliyat samaradorligida, da’vogarlik darajasi samaradorligida, da’vogarlik darajasi ahamiyatini tadqiq etishga bag‘ishlaymiz.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdurasulov R.A. Sport mashg‘ulotlarining o‘quvchi-sportchilar shaxsini shakllanishidagi roli (yakkakurash turlari misolida): Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent., O‘zMU.2018.-65 b.
2. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA’VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHЛИLI." *Science and innovation in the education system 2.7* (2023): 106-112.
3. Жураев, Воҳиджон Мухаммадович, and Роман Евгениевич Петров. "БУЮК БРИТАНИЯ ВА ГЕРМАНИЯДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ТИЗИМИ." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 929-932.
4. Muhammedovich, Jurayev Vohidjon, and Ismoilov Islomjon Qaxramonjon o‘g‘li. "DA’VOGARLIK PSIXOLOGIK FENOMENINING PSIXOLOGIYADA TADQIQ ETILGANLIK HOLATI." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 434-439.
5. Muhammedovich, Jurayev Vohidjon. "B-HAVONING JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARGA TA’SIRI." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 440-445.
6. Джураев, Воҳиджон Мухаммадович. "ШАХСДАГИ Даъвогарлик даражаси ва ўз-ўзини баҳолашнинг ижтимоий психологияк

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish  
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

ТОМОНЛАРИ: Жураев Воҳиджон Мухаммадовиҷ Қўқон давлат педагогика институти Жисмоний маданият методикаси кафедраси мустақил тадқиқотчиси." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 6 (2023): 322-324.